

**ISLOM INVESTITSIIYA KOMPANIYALARI FAOLIYATI MILLIY
QONUNCHILIK ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ZARURATI****Akbarov Bekmurod Miryakubovich***O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi doktoranti***Mo‘minov Ixtiyor Namozovich***Sirdaryo viloyat transport boshqarmasi tarif-narx**siyosati bo‘yicha bosh mutaxassis*

Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda O‘zbekistonning taxminan 30% aholisi aynan omonat foizi (ribo) haromligidan qo‘rqqani bois o‘z sarmoyalarini banklarga qo‘ymaydilar. Mana shuning uchun ham islom moliyasi, xususan, islom banklarining mamlakatimizga kirib kelishi va bizning banklarimiz bilan tuzadigan shartnomalari mamlakatimiz rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bu sohadagi amaliy misollarni keltiradigan bo‘lsak, Asia Alians Bankning rasmiy sayti ham mazkur bank va Xalqaro islomiy savdo-sotiqni moliyalash korporatsiyasi (International Islamic Trade Finance Corporation) o‘rtasida 9 million dollarlik “Murabaha” tamoyiliga asoslangan islom moliyaviy shartnomasi imzolanganligi borasida rasmiy xabarlarni tarqatdi. Yana Asia Alliance bank tomonidan

2020-yilning oxiriga kelib to‘liq islom dini talablariga mos keladigan bank xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi haqida xabar berilmoqda [4]. Bundan tashqari, yaqin kelajakda islom moliyasi O‘zbekistonga yanada jadal ravishda kirib kelishi kutilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi (ITB) va Arab muvofiqlashtirish guruhi (AMG) jamg‘armalari bilan sheriklikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4224-son qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning maqsadi sifatida Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan uzoq muddatli sheriklikni yanada kengaytirish, shuningdek, ustuvor loyihalarni va ular bilan hamkorlik dasturlarini qo‘llab-quvvatlash belgilandi. Mazkur qarorda respublikamizning ITB guruhi va AMG bilan uzoq muddatli sherikligining asosiy yo‘nalishlari hamda vazifalaridan biri sifatida bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish hamda bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf jamg‘armalarni tashkil etish yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O‘zbekistonda tatbiq qilish (qarorning 2-band) belgilab berildi. Bundan anglash mumkinki, O‘zbekiston hukumati islom moliyaviy institutlarining mamlakatimizga kirib kelishiga qarshi emas va aksincha, ularning kirib kelishiga xayrixohdir.

Shunday sharoitda islom moliyasi instrumentlarining davlatimizda qonuniy faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bu borada zamondosh huquqshunoslardan Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi Ahadjon Hakimov tomonidan ham keng huquqiy tahlil qilingan. Xususan, olimning fikriga ko‘ra, avvalo, nizolarni hal etish uchun ma’lum bir huquq tizimi

tanlash kerak bo'ladi. Aslida islom moliyasi instrumentlarini rasmiylashtiradigan shartnomalar bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish maqsadida shariat huquqiga asoslanmaydigan anglo- sakson yoki roman-german huquqiy oilasiga kiruvchi davlatlar asosan ikki xil usuldan foydalanib kelishmoqda. Birinchi usulda ichki huquqda islom moliyasi bilan bog'liq nizolarni hal etishda shariat huquqiga tayanish lozimligini anglatuvchi normalarni belgilash orqali (masalan, Qozog'iston) tartibga solish maqsad qilinadi. Ikkinchi usulda alohida islom banklari uchun shariat huquqini qo'llash bo'yicha norma kiritmasdan Xalqaro xususiy huquqdagi qo'llaniladigan huquqni aniqlash yo'li bilan nizolarga yechim topishga uriniladi. Xo'sh, unda yurtimizda ushbu turdagi nizolarni hal etishda qo'llaniladigan huquq sifatida belgilash masalasi qanday hal etilishi mumkin? Ushbu muammoga olim quyidagicha fikr bildiradi. "O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-moddasi ikkinchi xatboshisida: "Ular (fuqarolar) shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar", – deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, mazkur kodeksning 354-moddasida "Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar" deb belgilangan. Ya'ni milliy huquqimiz shartnomada taraflar erkinligini ta'minlaydi. Agarda ushbu moddalarga asoslanadigan bo'lsak, islom moliyasi bilan bog'liq har qanday shartnomalar tuzilishi mumkin va unda shariat huquqini qo'llaniladigan huquq sifatida belgilab olish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek, uning qonuniyligi borasida ham hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas. Fuqarolik kodeksining VI bo'limi qoidalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1158-modda qo'llaniladigan huquqni belgilash asoslariga taraflarning kelishuvini ham kiritadi." Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, islom moliyasi instrumentlari, xususan, investitsiyalar bilan bog'liq shartnomalar(muzoraba) xususiy huquqning bir elementi sifatida ko'riladi. Shu boisdan shartnoma shartlari tomonlar ixtiyoridagi masala bo'lib, nizolarni hal etish, shartnoma shartlarni tuzish ularning ixtiyoriga bog'liq bo'lib qoladi. Bunga fuqarolik kodeksining yuqorida ta'kidlangan tegishli moddalari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ammo FK 1189-moddasi: "Shartnoma, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflarning kelishuviga ko'ra tanlangan mamlakat huquqi bilan tartibga solinadi", – deb belgilaydi. Mazkur moddaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda aynan "mamlakat huquqi" degan so'z tilga olinadi. Bu esa o'z navbatida mamlakat huquqi bo'lmagan shariat huquqini qo'llaniladigan huquq sifatida sudlarda tatbiq etishga to'sqinlik qilish ehtimoli katta. Bundan tashqari, O'zbekistondagi sudlar tomonidan qonun hujjatlarini sharhlashda so'zma-so'z sharhlash usulidan keng foydalanilgani, teleologik sharhlashdan juda kam foydalanilishini hisobga olsak, shartnomada ko'rsatilgan shariat huquqi qo'llaniladigan huquq sifatida qo'llanilmasligi ham mumkin. Shuningdek, yuqorida Angliyada ko'rib chiqilgan ish singari taraflar shartnomada "shariat ahkomlariga asoslangan holda O'zbekiston huquqi qo'llaniladi" deb belgilasa, taraflarning erk-muxtoriyati yuqori o'ringa qo'yiladimi yoki Fuqarolik kodeksidagi "mamlakat huquqi" degan so'zga tayanilib, bitta huquq nazarda tutilishi va shariat huquqi mamlakat huquqi emas degan sharhlash orqali O'zbekiston huquqi ishga nisbatan qo'llanilishi mumkin. Bunda taraflarning oldindan

bashorat qilish imkoniyati mavjud bo'lmaydi. Masalan, islom moliyasidagi ijara shartnomasini oladigan bo'lsak, ijaraga olgan shaxsning to'lovni kechiktirishi natijasida shariat huquqiga ko'ra qo'shimcha haq to'lamasligini oldindan bashorat qilishiga qaramay, shariat huquqi emas, O'zbekiston huquqining qo'llanilishi natijasida qo'shimcha haq to'lashiga to'g'ri kelib qoladi. Shuning uchun bundan keyin islom moliyasining O'zbekistonga kirib kelishi mana shunday muammolarni yuzaga keltirishini sudlarimiz oldindan hisobga olib qo'yishlari lozim.

Boshqa tarafdin, investitsiya kiritganlik haqida ma'lumot beruvchi "guvohnoma" - islomiy qimmatli qog'oz, ya'ni sukukning ham chiqarilishini huquqiy tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Negaki, sukuk investitsiya bilan bog'liq islomiy instrument hisoblanadi.

Sukuk – qarzga asoslangan moliyalashtirishning keng qo'llanadigan vositalaridan biri hisoblanadi. AAOIFI ning xalqaro standartlariga ko'ra, sukuk – bir xil qiymatdagi sertifikatlar bo'lib, ma'lum bir investitsion faoliyat yoki ma'lum bir loyihadagi aktivlarga, ularni naturada ajratish imkoniyatisiz egalik huquqi, xizmatlardan foydalanish huquqi, moddiy aktivlarga egalik va foydalanish huquqiga ulushni o'zida aks ettiradi. Amaliyotda mana shunday huquq, sukuk emissiyasini amalga oshirish maqsadlari uchun olingan mablag'lar ishlatilgach va obuna yakunlangach hamda sukuk qiymati olingach, amalga oshiriladi. Sukuk qimmatli qog'ozlari loyiha yoki ijarada ishtirokni o'zida ifodalaydi va nomlanishining o'zida loyihaning mohiyati ko'rsatilgan bo'ladi (sukuk al-muzoraba, sukuk al-mushoraka, sukuk al-ijara va h.k.). Loyihalarning ko'lami va ularga yevropalik investorlarni jalb etish nuqtai nazaridan, eng ommabop sukuklar lizing bitimlarini sektyuritizatsiya qilish loyihalaridir (sukuk al-ijara). Aynan sukuk al-muzorabada– SPV va qarzidor sherikchilik ishtirokchilari bo'ladilar. Investorlarning huquqlari pay investitsiya fondlari egalari huquqlari bilan tengdir. Ushbu tarkib ko'p sonli mayda investorlarning mablag'larini jalb etish uchun ishlatiladi.

M. Taqi Usmanining ta'kidlashicha, sukuk boyliklarni adolatli taqsimlash vositasidir, chunki u korxonada ishtirok etish natijasida investorlarga voqelikdagi foydadan manfaat olish imkonini beradi. Bir investorning kuchi yetmagan katta korxonalarni moliyalashtirishning eng yaxshi usullaridan biri. Islomiy moliyaviy muassasalar va banklar uchun likvidlikni boshqarishning ajoyib vositasi.

Sukukni an'anaviy qimmatli qog'ozlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, islomiy qimmatli qog'ozlar obligatsiyalarga o'xshaydi. Biroq, an'anaviy obligatsiya - bu ssuda egasini tasdiqlovchi va unga qimmatli qog'ozning nominal qiymatini qat'iy belgilangan (qat'iy) foiz stavkasi bilan qaytarish majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Emitentlar foyda ko'radimi yoki yo'qotadimi, obligatsiya egalari o'zlarining shartnomaviy foizlarini olishadi, bu esa belgilangan daromadlilik foizlari deb ham ataladi. Obligatsiyaning belgilangan foiz stavkasini ifodalashi uni sukukdan ajratib turadi. Chunki sukukda sudxo'rlik va foiz taqiqlangan operatsiyalardan hisoblanadi. Aniqrog'i, qimmatli qog'oz (riba) chiqarishda qarzni qarz miqdoridan farqli narxda sotish yoki qarzga berish man etiladi. Shuningdek, an'anaviy obligatsiyadan farqli o'laroq, sukuk loyihasi real iqtisodiyotga bog'liq bo'lishi kerak. Ya'ni, sukuk orqali moliyalashda kapitaldan foydalanish

qat'iy nazorat qilinadi. Harom hisoblanishi mumkin bo'lgan tamaki, alkogol, qurol, o'yin-kulgi, cho'chqa go'shti bilan moliyaviy operatsiyalar bo'lmasligi kerak.

Foiz (majburiyatning belgilangan foizi) jamiyatdagi adolatsizlikning bir ko'rinishidir. Sukukning eng yorqin jihatlaridan biri uning sudxo'rlikdan xoli ekanligidadir. Chunki shariatda foyda va tavakkal ishtirokchilar o'rtasida teng taqsimlanishi kerak. Bundan farqli o'laroq, emitentlar foyda ko'radimi yoki yo'qotadimi, obligatsiyalar egalari odatdagi qimmatli qog'ozlardagi shartnomaviy ulushlarini oladilar. Bu esa, o'z navbatida, islom moliyasi va islom huquqi qanchalik maqbul va adolatli ekanini ko'rsatadi.

Fuqarolik Kodeksining 96-moddasi da qimmatli qog'ozlarning bir qancha turlari, jumladan, obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlar, konnosamentlar, aksiyalar va qonun bilan qimmatli qog'ozlar ro'yxatiga kiritilgan boshqa hujjatlar sanab o'tilgan. Lekin ushbu qimmatli qog'ozlar ro'yxat to'liq shakllantirilmagan va yopiq emas. Bu esa ro'yxatda sukuk ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, unda hujjatlarni qimmatli qog'ozlar ro'yxatiga kiritish qonunning vakolati ekanligi qayd etilgan. Ya'ni, qimmatli qog'ozlarning yangi shakllari tijorat banklari yoki jismoniy shaxslarning tashabbusi bilan yaratilishi mumkin emas, ular faqat qonun bilan belgilanishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sukuk qimmatli qog'ozlari amalga oshirilishi uchun amaldagi qonunchilikda maxsus belgilanishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom moliyasi tamoyillariga asoslangan qimmatli qog'ozlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasini e'lon qilinishi O'zbekistonda sukukni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish, shuningdek, Fuqarolik kodeksiga o'zgartishlar kiritishga qaratilgan.

Aytish joizki, Professor Omonboy Oqyulovning fikricha, Fuqarolik Kodeksi loyihasining 37- bobida tavakkalchilik burchi teng taqsimlanadigan qarz va kredit shartnomalariga normalar ajratilishi lozim. Butun dunyo bo'yicha Islom banklari kreditlarida keng tarqalgan bunda qarz beruvchi xam foydaga ham zararga sherikman degan tamoyil asosida shartnoma tuzadi.

Islom diniga e'tiqod qiluvchi kishilar uchun sudxo'rlik gunoh hisoblanadi. Shu sababli ular e'tiqodiga to'g'ri keladigan shartnoma konstruksiyalari FKda o'z ifodasini topishi lozim.

REFERENCES:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (биринчи қисм)
<http://lex.uz/docs/111189>
2. Asia Alians banki rasmiy sayti: http://aab.uz/en/press_center/news/asia-alliance-bank-jscb-for-the-first-time-in-uzbekistan-completed-the-transaction-in-the-field-of-i
3. Toshkent davlat yuridik universiteti, Yuridik fanlar axborotnomasi, "ISLOM MOLİYASI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN SHARIAT QOIDALARINI O'ZBEKISTON

SUDLARIDA QO‘LLASH MASALALARI” Toshkent davlat yuridik universiteti, Yuridik fanlar axborotnomasi,“ ISLOM MOLIYASI BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN SHARIAT QOIDALARINI O‘ZBEKISTON SUDLARIDA QO‘LLASH MASALALARI” Axadjon Xakimov, Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi

https://www.researchgate.net/publication/348390951_Review_of_law_sciences_ON_ISSUES_OF_APPLICATION_OF_SHARIA_RULES_RELATED_TO_ISLAMIC_FINANCE_IN_THE_COURTS_OF_UZBEKISTAN

4. <http://uzbekistanlawblog.com/introduction-of-sukuk-in-uzbekistan-is-the-national-legislation-ready-to-introduce-sharia-compliant-bond-like-instruments/>.